



“MILLIY QADRIYATLARIMIZNING FARZAND TARBIYASIDAGI O’RNI.”

Alimova Dilfuza Obidovna

Sharopova Matluba

Buxoro shahar kash – hunar maktabi huquq fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qadriyat, millat kelajagi bo’lmish aziz farzandlarimizni tarbiyalashda milliy o’zlikni anglash, milliy qadriyatlarning tarbiyabiy jihatlarini o’rgarish va ularning qalbiga singdirish haqida fikr yuritiladi.

Tayanch so’zlar: Qadriyat, milliy qadriyat, jamiyatdagi ahloqiy tushunchalar, individualizm.

Qadriyat — voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy axloqiy, madaniy ma’naviy ahamiyatini ko’rsatish uchun qo’llanadigan tushuncha. Inson uchun ahamiyatli bo’lgan barcha narsalar, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma’rifat, haqiqat, yaxshilik, go’zallik, moddiy va ma’naviy boyliklar, an’ana, urf-odat va boshqalar qadriyat hisoblanadi. Qadriyatlар jamiyat rivojining negizi, millatning tarixiy taraqqiyotida erishilgan muvaffaqiyatlarini avloddan avlodga o’tkazuvchi qudratli omildir. Tarixiy taraqqiyot bosqichlariga nazar tashlar ekanmiz, har bir jamiyat, davlat o’zining milliy qadriyatlарini rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib taraqqiy etmagan. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida: "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi - bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi - ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat", - deb e'tirof etdilar. Xo'sh qadriyatning o'zi nima? Qadriyatlар deganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo’lgan barcha narsalar tushuniladi. Qadriyatlarning mohiyati insonlarning tarixiy tajriba an'analarini kelgusi avlodlarga to'la-to'kis yetkazish, o’rgatish, ta’lim-tarbiya berish orqali izohlaymiz. Shuning uchun milliy ma’naviy qadriyatlarni e’zozlab, ardoqlab, chin dildan bajarish va ularni o’z holida saqlash, shu bilan birga, umuminsoniy qadriyatlarni oila muhitiga uyg'unlashtirish dolzarb masaladir. Qadriyatlар mazmunan xilma-xil turlarga bo’linib, hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan. Jumladan, inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Inson yo‘q joyda biror narsaning qadr-qimmati haqida so’zlashga hojat ham yo‘q. Shuning uchun ham inson qadr-qimmatini e’zozlash, uning turmushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog’lig’ini saqlash, hayotini himoya qilish davlatimiz siyosatining asosiy yo’nalishini tashkil etadi. Farzandlarimiz ongida axloqiy qadriyatlarni shakllantirish uchun: Vatanga, ota-onaga, o’tgan avlodlariga hurmat, muhabbat tushunchalari va tasavvurlarini kengaytirish; burch, vijdon, insof, mas’uliyat haqidagi tasavvurlarni vujudga keltirish; do’stlik, o’rtoqlik, qo’ni-qo’shnichilik munosabatlari haqidagi tasavvurlarni kengaytirish hal



qilinishi kerak bo'lgan dastlabki vazifadir. Estetik qadriyatlar farzandlarimizning estetik sezgi va idrokini tarbiyalash, tashqi va ichki go'zalligini shakllantirishdir. Ularda estetik qadriyatlarni shakllantirish uchun: bola ongida ota-bobolarimizdan bizgacha yetib kelgan amaliy, me'morchilik, musiqa va san'at asarlarini, shuningdek, turli xarakterdagi bayramlarni asrab-avaylash tuyg'usini shakllantirish; go'zallikka baho berish, haqiqiy go'zallikni soxta go'zallikdan ajrata olish; tabiatning nozik, nafis go'zalliklarini ko'rish, his etishni rivojlantirish talab etiladi. Qadriyatlar amal qilish doirasiga ko'ra, milliy va umuminsoniy turlarga bo'linadi. "Bir bolaga yetti mahalla ham ota, ham ona" degan maqolning haqiqiy ma'nosini anglaydigan vaqt keldi. Har qanday millatning ma'naviy boyligi milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unlashuvidan tarkib topadi. Shu boiz milliy qadriyatlarga e'tiborni ko'chaytirish kerak. Chunki, milliy qadriyatlarga e'tibor kamayar ekan, bu o'z navbatida umuminsoniy qadriyatlarning boyishiga salbiy ta'sir etadi. Biz ming yillar davomida shakllangan, odamlarning hayoti ichki dunyosidagi mustahkam o'rin olgan, unga barcha amal qiladigan, insonlarning qon-qoniga singib ketgan an'analarimizni, ota-bobolarimiz bizga qoldirgan olijanob qadriyatlarni, g'ururimizni ko'taradigan, xalqimizni obro'siga obro' qo'shadigan insoniy odat va fazilatlarni saqlash, asrab-avaylash va eng katta boylik sifatida yangi kelajak avlodlarga etkazish zarur. Bugun yurtimizda qadriyatlarmizni qadrlaydigan, ezgu an'analarga o'z hayotiy mo'ljalida muhim omil sifatida munosabatda bo'ladigan yoshlar ko'p. Lekin hayoti va istiqbolida milliy qadriyatlarning o'rnini biroz to'g'ri tushunmaydigan yoki o'zini undan xoli holda ko'rib milliy madaniyatimizga e'tiborsizroq bo'lgan yoshlarimiz borligini ham hozircha inkor etolmaymiz. Barchamiz guvohmiz-bugun dunyo misli ko'rilmagan sur'atlar bilan keskin o'zgarib bormoqda. Ijtimoiy hayotimizda ko'plab ijobjiy jarayonlar bilan birga, yosh avlodning qalbi va ongini egallahga qaratilgan ma'naviy tahdidlar ham tobora xavfli tus olmoqda. Ijtimoiy hayotni jamiyat tomonidan e'tirof etilgan qadriyatlarsiz tasavvur qilish mushkul, ularsiz yashab bo'lmaydi. Biroq qadriyatlarmizga qarshi bo'zg'unchi g'oyalar ya'ni: "shaxs erkinligi" ga qarshi oila va jamiyat oldidagi yuksak ma'suliyatni: "individualizm"ga qarshi jamoaviylik, mahalladoshlikni, "egotsentrizm"ga qarshi ota-onas, qarindosh-urug'larni hurmat qilish, mehr-oqibatni, "olomon madaniyatiga qarshi" milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash orqali jamiyatimiz barqarorligiga tahdid soluvchi illatlarga qarshi ong-tafakkurda mafkuraviy to'siq qo'yish darkor. Bugungi erkin va ozod hayotning ma'nosi va qadr-qimmatini yoshlarning ongi va qalbiga etkazishda birinchi navbatda ota-onalar, ustoz-murabbiylar mas'ul bo'lmog'i kerak. Zero, Bugun yoshlarimiz qanday qadriyatlarsari intilmoqda, qanday orzu-niyat va o'y-hayollar bilan yashamoqda, biz bunga loqayd va befarq qaramasligimiz kerak. Ota-onas, ustoz-murabbiyi, yetakchi-rahbar sifatida bu jarayonni chetdan turib kuzatishga haqqimiz yo'q". Bugungi kunda farzanlarimizning ma'naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlardan ruhida tarbiyalash masalasi biz uchun eng dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.



FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. A.Fitrat "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" 2-nashr, –Toshkent: "Ma'naviyat". 2000. – B.112. 55.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: "Adolat", 2008, – B.24.
3. Amir Temur. "Temur tuzuklari". – Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at", 1996. – B.28.
4. A.Avloniy "Turkiy guliston yohud axloq". – Toshkent: "Yoshlar nashriyot uyi", 2018.– B. 97.
5. Кайковус. "Қобуснома". – Тошкент: "Үқитувчи", 1986, – Б.83.